



SOGʻLIQNI SAQLASH VA FARMATSEVTIKA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BOʻYICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART FELDSHERLIK ISHI



“Feldsherlik ishi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Feldsherlik ishi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0056



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Ushbu Kasbiy standart oilaviy poliklinika feldsher-akusheri, umumiy amaliyot feldsher-akusheri va feldsher mutaxassislarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, mahorat va mas'uliyat darajasini belgilaydi hamda ularning malakasini baholash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ambulator-poliklinika xizmati – bemorlarga ambulator sharoitda tibbiy yordam ko'rsatish tizimi;

anamnez – bemor bilan muloqot qilish orqali kasallikning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari va o'tkazilgan kasalliklar haqida ma'lumotlar yig'ish jarayoni;

antiseptika – mikroblarni yo'q qilish yoki ularni kamaytirish maqsadida ishlatiladigan usullar;

antropometriya – insonning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini (bo'yi, vazni, tana aylanasi) o'lchash usullari;

aseptika – mikroblarning tibbiy asbob-uskuna va atrof-muhitda ko'payishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

davolash jarayoni – bemorga tibbiy yordam ko'rsatish uchun qo'llaniladigan qadamlar va chora-tadbirlar;

deontologiya – tibbiy xodimlar kasbiy axloq qoidalari va majburiyatlar tizimi;

desmurgiya – jarohatlanganda va suyak singanda bog'lam qo'yish texnikasi va qoidalari haqidagi ta'limot;

epidemiya qarshi chora-tadbirlar – yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun amalga oshiriladigan profilaktika ishlari;

feldsher – o'rta maxsus professional tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan, shifokorgacha bo'lgan birlamchi va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish, tashxis qo'yish va davolash vakolatiga ega mutaxassis;

fizioterapevtik xizmatlar – kasalliklarni davolashda fizik omillar (massaj, elektr terapiya, issiqlik va boshqalar)dan foydalanish;

gigiyena – inson salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olish uchun amalga oshiriladigan sanitariya va sog'lom turmush tarziga oid chora-tadbirlar;

immobilizatsiya – suyak sinishi, chiqishi yoki qattiq jarohatlanishda tana qismining qimirlamasligini ta'minlash jarayoni;

immunoprofilaktika – yuqumli kasalliklarga qarshi immunitet hosil qilish uchun organizmga vaktsina yuborish tizimi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

patronaj – aholi xonadonlariga tashrif buyurgan holda fuqarolarning salomatligini nazorat qilish va parvarishlash tizimi;

reproduktiv salomatlik – insonning nasl qoldirish qobiliyati bilan bog'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik holati;

sanitariya – atrof-muhitni tozalikda ushlab, yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi;

skrining – kasalliklarni erta aniqlash maqsadida aholining ma’lum bir qatlami orasida o’tkaziladigan ommaviy tibbiy tekshiruvlar;

sterilizatsiya – tibbiy asbob-uskunalar va bog’lov materiallaridagi barcha turdagi mikroorganizmlarni to’liq yo’q qilish jarayoni;

umumiy amaliyot feldsher-akusheri – birlamchi tibbiy yordam muassasalarida faoliyat yuritayotgan, bemorlarni kuzatish, tibbiy xizmatlar ko’rsatish va salomatlikni saqlashda qatnashadigan tibbiy xodim;

vital ko’rsatkichlar – inson hayoti uchun eng muhim belgilar: tana harorati, arterial qon bosimi, puls va nafas olish soni;

yurak-o’pka reanimatsiyasi – yurak to’xtab qolganda va nafas olish to’xtaganda hayotiy faoliyatni tiklashga qaratilgan shoshilinch chora-tadbirlar majmuasi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O’zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgust “Fuqarolar sog’lig’ini saqlash to’g’risida” gi 265-I-son Qonuni;

O’zbekiston Respublikasining 2015-yil 26-avgust “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtalik to’g’risida” gi O’RQ-393-sonli Qonuni;

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-aprel “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi PQ-215-sonli Qarori.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr “O’zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-345-sonli qarori;

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabr “O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag’lari hisobiga tibbiy yordam ko’rsatish tartibi to’g’risida” gi nizomni tasdiqlash haqidagi 696-sonli qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo’llaniladi:

ABCDE – Shoshilinch yordamda birlamchi ko’rik protokoli;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

SES – Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati;

SSV – Sog’liqni saqlash vazirligi;

TVI – Tana Vazni Indeksi;

UTT – Ultratovush tekshiruvi (UZI);

EKG – Elektrokardiogramma;

OIV / OITS – Odam immunitet tanqisligi virusi / Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi;

START – Ommaviy jarohatlanishda saralash algoritmi;

GPS – Global joylashuvni aniqlash tizimi (Global Position System).

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Feldsherlik ishi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Aholiga shoshilinch va birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish, shifokorgacha bo'lgan tashxis qo'yish, bemorlarni parvarishlash, patronaj xizmatini amalga oshirish hamda ona va bola salomatligini muhofaza qilish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	R seksiyasi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish; 86 – Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat; 86.9 – Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat; 86.94 – Hamshiralik va akusherlik faoliyati; 86.94.0 – Hamshiralik va akusherlik faoliyati.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu kasbiy standart sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini va shoshilinch tibbiy yordam xizmatida faoliyat yurituvchi Feldsher, Oilaviy poliklinika feldsher-akusheri hamda Umumiy amaliyot feldsher-akusheri uchun yagona malaka talablarini belgilab beradi. Mazkur hujjat mutaxassisning bemorlarni mustaqil qabul qilish, birlamchi tashxislash, davolash muolajalarini bajarish, patronaj xizmatini olib borish, hayot uchun xavfli holatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish hamda ona va bola salomatligini muhofaza qilishga yo'naltirilgan faoliyatini to'liq qamrab oladi va ushbu mutaxassislarni ishga qabul qilish, faoliyatini baholash hamda o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		32220002 Oilaviy poliklinika feldsher-akusheri	5
		32220003 Umumiy amaliyot feldsher-akusheri	5
		32530001 Feldsher	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	32220002 Oilaviy poliklinika feldsher-akusheri	A1.5	Oilaviy poliklinikada ayollar va bolalarni qabul qilish hamda birlamchi ko'rik o'tkazish	A1.01.5	Bemor bilan deontologiya qoidalariga rioya qilgan holda muloqot qilish, shikoyatlarini tinglash va anamnez yig'ish
				A1.02.5	Bemorlarning antropometrik ko'rsatkichlarini va homilador ayollarning chanoq o'lchamlarini o'lchash
				A1.03.5	Vital ko'rsatkichlarni aniqlash va tibbiy hujjatlarga qayd etish
				A1.04.5	Homilador ayollarning qornini paypaslash, homila joylashuvini aniqlash va homila yurak urishini eshitish
				A1.05.5	Birlamchi tekshiruv natijalariga ko'ra xavf omillarini aniqlash va zarurat bo'lganda oilaviy shifokor ginekolog ko'rigiga yo'naltirish
		A2.5	Homiladorlar, tug'ruq yoshidagi ayollar va bolalar monitoringini olib borish	A2.01.5	Homilador ayollarni erta muddatlarda aniqlash va dispanser hisobiga olish
				A2.02.5	Homiladorlarni rejali skrining tekshiruvlariga va laboratoriya tahlillariga o'z vaqtida yuborishni nazorat qilish
				A2.03.5	Tug'ruq yoshidagi ayollar o'rtasida istalmagan homiladorlikning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish
				A2.04.5	5 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'sishi va rivojlanishini monitoring qilish
				A2.05.5	Surunkali kasalligi bor ayollarni va nogironligi bor bolalarni davriy ko'rikdan o'tkazish grafigini yuritish
		A3.5	Oila a'zolariga uyda tibbiy-ijtimoiy va patronaj yordamini ko'rsatish	A3.01.5	Tasdiqlangan reja-grafik asosida biriktirilgan aholi xonadonlariga patronaj tashriflarini amalga oshirish
				A3.02.5	Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va chillalik davridagi ayollarni uy sharoitida ko'rikdan o'tkazish, kindik parvarishi va emizish bo'yicha amaliy yordam berish
				A3.03.5	Xonadonlardagi sanitariya-gigiyena holatini baholash va sog'lom turmush tarzi bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish
				A3.04.5	Uy sharoitida parvarishga muhtoj bemorlarga tibbiy muolajalarni bajarish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
2	32220003 Umumiy amaliyot feldsher-akusheri	B1.5	Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishda shifokorga ko'maklashish	B1.01.5	Qabulga kelgan bemorlarni saralash, tana harorati va qon bosimini o'lchash, shoshilinch yordamga muhtoj holatlarni ajratib olish
				B1.02.5	Shifokor ko'rsatmasiga binoan bemorlarga ambulator sharoitda va kunduzgi shifoxonada davolash muolajalarini bajarish
				B1.03.5	Dispanser nazoratida turuvchi surunkali kasalligi bor bemorlarni reja asosida chaqirtirish va skrining tekshiruvlarini tashkil qilish
				B1.04.5	Aholi orasida onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish va xavf guruhini shakllantirish
				B1.05.5	Keksa yoshdagi va yolg'iz keksalar holidan xabar olish, ularning dori vositalarini to'g'ri qabul qilishini nazorat qilish
		B2.5	Aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish va akusherlik yordamini ko'rsatish	B2.01.5	Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tishlari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish
				B2.02.5	Mahalladagi tug'ruq yoshidagi ayollarni to'liq ro'yxatga olish
				B2.03.5	Uyda to'satdan boshlangan tug'ruq jarayonida shoshilinch akusherlik yordamini ko'rsatish va onani shifoxonaga yetkazishni tashkil qilish
		B3.5	Yuqumli kasalliklar profilaktikasi va emlash ishlarini bajarish	B3.01.5	Milliy emlash kalendariga asosan bolalarni va xavf guruhidagi aholini profilaktik emlashga chaqirish
				B3.02.5	Vaksinalarni "sovuqlik zanjiri" qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda saqlash va tashish
				B3.03.5	Emlashdan oldin bolani termometriya qilish va emlashdan keyingi nojo'ya ta'sirlarni kuzatib borish
				B3.04.5	Yuqumli kasallik o'chog'i aniqlanganda, birlamchi epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o'tkazish va SES xodimlariga xabar berish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
3	32530001 Feldsher	D1.5	Mustaqil ravishda bemorlarni tashxislash va shifokorgacha bo'lgan yordamni ko'rsatish	D1.01.5	Bemor yoki jabrlanuvchining umumiy ahvolini baholash, hayot uchun xavf soluvchi belgilarni soniyalar ichida aniqlash
				D1.02.5	Shoshilinch holatlarda anamnez yig'ish va fizik tekshiruv o'tkazish
				D1.03.5	Ommaviy baxtsiz hodisalar va falokatlar yuz berganda jabrlanuvchilarni saralash
				D1.04.5	Elektrokardiogramma tushirish va o'tkir patologiyalarni dastlabki interpretatsiya qilish
				D1.05.5	Qonda qand miqdorini va kislorod saturatsiyasini tezkor aniqlash
		D2.5	Shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy muolajalarni bajarish	D2.01.5	Klinik o'lim holatida zamonaviy standartlar asosida yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish va defibrillyatordan foydalanish
				D2.02.5	Tashqi qon ketishlarni to'xtatish usullarini qo'llash
				D2.03.5	Suyak sinishi, chiqishi va umurtqa pog'onasi jarohatlarida transport immobilizatsiyasini bajarish
				D2.04.5	Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash
				D2.05.5	O'tkir zaharlanishlarda oshqozonni yuvish va antidotlarni qo'llash
		D3.5	Davolash va rehabilitatsiya muolajalarini bajarish	D3.01.5	Shifokor tayinloviga yoki tasdiqlangan standartlarga ko'ra dori vositalarini turli usullarda yuborish va kateter o'rnatish
				D3.02.5	Jarohatlarga birlamchi ishlov berish, aseptik bog'lamlar qo'yish
				D3.03.5	Bemorni zambilda yoki qo'lda xavfsiz tashish qoidalariga rioya qilish
				D3.04.5	Tez tibbiy yordam mashinasidagi tibbiy asbob-uskunalar va dori qutisining to'liqligini va yaroqliligini har navbatchilikda tekshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Oilaviy poliklinika feldsher-akusheri	
Mashg'ulot nomining kodi:	32220	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ushbu kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan avvalgi ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Tibbiy ko'rikdan o'tgan va sog'lig'i kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqli bo'lishi. Jamoaviy ishda faol ishtirok etish, o'zaro hurmat va samarali hamkorlik muhitini saqlash. Yuksak mas'uliyat, stressga chidamlilik va tibbiy etika-deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish. Bemorlar bilan samimiy muloqot o'rnata olish. Vaziyatni to'g'ri baholab tezkor qaror qabul qilish. Kuchli kuzatuvchanlik va hamdardlik qobiliyatiga ega bo'lish. Axborot maxfiylikni ta'minlash va tibbiy sirni saqlash. Malakasini doimiy ravishda oshirish va amaliyotda qo'llash.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Umumiy amaliyot feldsher-akusheri
	5	Feldsher
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5 - Oilaviy poliklinikada ayollar va bolalarni qabul qilish hamda birlamchi ko'rik o'tkazish	A1.01.5 - Bemor bilan deontologiya qoidalariga rioya qilgan holda muloqot qilish, shikoyatlarini tinglash va anamnez yig'ish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Bemor bilan salomlashish, o'zini tanishtirish va muloqot uchun qulay ruhiy muhitni shakllantirish
		2. Bemorning asosiy va qo'shimcha shikoyatlarini faol tinglash hamda aniqlashtiruvchi savollar orqali saralash
		3. Bemorning kasallik tarixi, hayot tarixi, irsiy va allergologik anamnez ma'lumotlarini so'rov o'tkazish yo'li bilan yig'ish
		4. Ayollar uchun maxsus ginekologik anamnez ma'lumotlarini aniqlash
		5. Olingan barcha subyektiv ma'lumotlarni tibbiy hujjatlarga xronologik tartibda qayd etish

		Ko'nikmalar:
		Bemorning ishonchini qozonish va uni ochiq suhbatga chorlash
		Shikoyatlar orasidan hayot uchun xavfli belgilarni ajratib olish va tahlil qilish
		Bemorga tushunarli bo'lgan sodda tilda aniq savollar berish
		Bolalar va o'smirlar bilan ularning yoshiga mos ravishda muloqot o'rnatish
		Ginekologik va nozik mavzularda xijolat qilmasdan, professional tarzda suhbatlashish
		Tibbiy atamalarni to'g'ri qo'llagan holda anamnez ma'lumotlarini xatosiz yozish
		Eshitish va nutqida nuqsoni bor bemorlar bilan muloqot qilish usullarini qo'llash
		Bilimlar:
		Tibbiy deontologiya va etika qoidalari
		Samarali muloqot texnikalari va konfliktologiya asoslari
		Turli yoshdagi bemorlar psixologiyasi xususiyatlari
		Anamnez yig'ish metodologiyasi va tartibi
		Ayollar reproduktiv salomatligi va fiziologiyasi asoslari
		Ichki kasalliklar propedevtikasi
		Allergik reaksiyalar turlari va dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari
		Epidemiologik anamnez yig'ish qoidalari
		Tibbiy hujjatlarni yuritish bo'yicha amaldagi me'yoriy talablar
		"Shifokor siri" va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligi
		Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning tana vazni va bo'y uzunligini maxsus asboblarda yordamida o'lchash
		2. Olingan natijalar asosida Tana Vazni Indeksini hisoblash va baholash
		3. Homilador ayollarning tashqi chanoq o'lchamlarini tazomer yordamida aniqlash
		4. Bolalarning bosh va ko'krak qafasi aylanasi o'lchamlarini santimetr tasmasi yordamida o'lchash
		5. Antropometrik ma'lumotlarni o'sish va rivojlanish jadvallari bilan taqqoslash va monitoring qilish
		Ko'nikmalar:
		Tibbiy tarozi foydalanish
		Bo'y o'lchagich foydalanish
		Tazomerdan foydalanish
		Santimetr tasmasini to'g'ri joylashtirish
		TVIning hisoblash
		Olingan natijalarni grafik chizmalarga aniq tushirish
	A1.02.5 - Bemorlarning antropometrik ko'rsatkichlarini va homilador ayollarning chanoq o'lchamlarini o'lchash	

		Bilimlar:
		Antropometriya o'tkazish qoidalari va texnikasi.
		Tana vazni indeksi formulasi va semizlik/ozg'inlik darajalari
		Ayol chanog'ining normal o'lchamlari va anatomik tuzilishi
		Bolalarning jismoniy rivojlanish standartlari
		Tibbiy tarozilar va bo'y o'lchagichlardan foydalanish xavfsizlik qoidalari
	A1.03.5 - Vital ko'rsatkichlarni aniqlash va tibbiy hujjatlarga qayd etish	Mehnat harakatlari:
		1. Bemorning arterial qon bosimini Korotkov usulida yoki elektron tonometrda o'lchash
		2. Arteriya tomirlarida puls sonini sanash, uning ritmi va to'liqligini aniqlash
		3. Tana haroratini turli sohalarda o'lchash
		4. Nafas olish harakatlari sonini sanash va nafas turini baholash
		5. Olingan barcha vital ko'rsatkichlarni tibbiy kartaga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Mexanik va elektron tonometrlardan professional foydalanish
		Pulsni bilak arteriyasida to'g'ri paypaslash va sanash
		Stop-sekundomer yordamida nafas sonini sanash
		Tana haroratini to'g'ri o'lchash va natijani baholash
		Bemor tibbiy kartasi bilan ishlash
		Bilimlar:
		Vital ko'rsatkichlarning yoshga oid normalari
		Arterial gipertoniya va gipotoniya mezonlari
		Termometriya qoidalari va isitma turlari
		Puls va nafas olishning patologik o'zgarishlari
	Aseptika qoidalari	
	A1.04.5 - Homilador ayollarning qornini paypaslash, homila joylashuvini aniqlash va homila yurak urishini eshitish	Mehnat harakatlari:
		1. Homilador ayolni tekshiruvga tayyorlash (qovuqni bo'shatishni so'rash, kushetkaga to'g'ri yotqizish) va qorin sohasini vizual ko'zdan kechirish
		2. Tashqi akusherlik tekshiruvi Leopold-Levitskiyning 4 ta usulini ketma-ketlikda qo'llab, homilaning joylashuvi, o'lchami va bachadondagi holatini paypaslab aniqlash
		3. Santimetr tasmasi yordamida Bachadon tubi balandligi va Qorin aylanasini o'lchash
		4. Akusherlik stetoskopi yoki Fetal Doppler yordamida homila yurak urish nuqtasini topish, sonini sanash va ritmini baholash
		5. Olingan natijalarni homiladorlik muddatiga mosligini aniqlash uchun "Gravidogramma"ga tushirish

		Ko'nikmalar:
		Qo'llarni iliq holda, og'riq bermasdan, ehtiyotkorlik bilan paypaslash
Homilaning boshi va chanoq qismini farqlay olish		
Homila joylashuviga qarab yurak urishi eng aniq eshitiladigan nuqtani topa olish		
Ona pulsini homila yurak urishidan farqlay olish		
Santimetr tasmagini qov suyagi simfizidan bachadon tubigacha to'g'ri joylashtirish		
O'lchov natijalarini me'yor bilan solishtirib, "Homila o'sishining kechikishi" xavfini aniqlay olish		
Bilimlar:		
Homiladorlik davrida bachadonning o'sish dinamikasi va qorin devori topografiyasi		
Leopold-Levitskiyning 4 ta usuli		
Har bir homiladorlik haftasi uchun Bachadon tubi balandligi normalari		
Homila yurak urishining normal ko'rsatkichlari, bradikardiya va taxikardiya belgilari		
Homilaning ko'ndalang yoki qiyshiq joylashuvi, "suv ko'pligi" yoki "suv kamligi"ni paypaslab sezish belgilari		
JJST standartlari asosida homiladorlikni monitoring qilish jadvallari		
A1.05.5 - Birlamchi tekshiruv natijalariga ko'ra xavf omillarini aniqlash va zarurat bo'lganda oilaviy shifokor-ginekolog ko'rigiga yo'naltirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Anamnez, fizik tekshiruv va o'lchov natijalarini umumlashtirish hamda tahlil qilish	
	Homiladorlik yoki kasallik kechishini og'irlashtiruvchi xavf omillarini identifikatsiya qilish	
	Xavf darajasiga ko'ra bemorni oilaviy shifokor, ginekolog yoki tor soha mutaxassisiga yo'naltirish	
	Bemorga ixtisoslashgan tibbiy yordam zarurligini asoslab tushuntirish	
	Tibbiy hujjatlarga dastlabki xulosa va yo'llanmani rasmiylashtirish	
	Ko'nikmalar:	
	Klinik belgilar va tahlil natijalarini mantiqiy solishtirish	
	Yashirin kechuvchi patologik jarayonlarni erta aniqlash	
	Tibbiy yo'llanma va ko'chirmalarni standart asosida to'ldirish	
	Bemorda vahima uyg'otmasdan vaziyat jiddiyligini tushuntirish va ishontirish	
	Bilimlar:	
	Homiladorlik va tug'ruq davridagi xavf belgilari bo'yicha milliy standartlar va protokollar	
	Ekstragenital kasalliklarning homiladorlikka ta'siri	
Shoshilinch akusherlik holatlari va "Qizil bayroq" belgilari		
Bemorlarni tibbiy yordamning yuqori bosqichiga yo'naltirish tartibi		

		Tibbiy saralash tamoyillari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Bemorlar bilan muloqot jarayonida tibbiy etika va deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha mas'uliyat
		2. O'tkazilgan antropometrik o'lchovlar va fizik tekshiruv natijalarining aniqligi hamda haqqoniyliги uchun javobgarlik
		3. Homilador ayollar va bolalarda kasallik yoki xavf omillarini aniqlash mustaqillik
		4. Tekshiruv davomida bemor xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat
		5. Tibbiy sirni saqlash va shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilmaslik bo'yicha mas'uliyat
		6. Aniqlangan patologik o'zgarishlar va shoshilinch holatlar yuzasidan zudlik bilan shifokorga xabar berish bo'yicha mas'uliyat
		7. Tibbiy hujjatlarni belgilangan tartibda sifatli to'ldirish bo'yicha mustaqillik
A2.5 - Homiladorlar, tug'ruq yoshidagi ayollar va bolalar monitoringini olib borish	A2.01.5 - Homilador ayollarni erta muddatlarda aniqlash va dispanser hisobiga olish	Mehnat harakatlari:
		1. Biriktirilgan hududdagi ayollar orasida homiladorlik belgilari kuzatilganlarni aniqlash
		2. Homiladorlikni tasdiqlash uchun dastlabki tekshiruvlarni o'tkazish va UTTga yo'naltirish
		3. Homilador ayolni 12 haftagacha bo'lgan muddatda birlamchi hisobga olish va "Homiladorlik va tug'ruqni qayd etish kartasi"ni ochish
		4. Homiladorlik muddati va taxminiy tug'ruq vaqtini aniqlash
		5. Ayolga homiladorlik davrida ovqatlanish, gigiyena va kun tartibi bo'yicha dastlabki tavsiyalarni berish
		Ko'nikmalar:
		Aholi bilan ishonchli muloqot o'rnatib, ro'yxatga olinmagan homiladorlikni aniqlash
		Homiladorlikka shubha qilinganda aniqlashtiruvchi savollar berish
		Akusherlik kalendaridan yoki maxsus diskdan foydalangan holda muddatlarni to'g'ri hisoblash
		Homiladorning tana vazni indeksi (TVI) va arterial qon bosimini o'lchash hamda baholash
		"Homiladorlik va tug'ruqni qayd etish kartasi"ni grafalarini xatosiz va to'liq to'ldirish
		Ayolga homiladorlikni saqlash va parvarish qilish bo'yicha tushunarli maslahatlar berish
Homiladorlikni rejalashtirish va foliy kislotasini profilaktik qabul qilish bo'yicha tushuntirish		
Ayolning psixo-emotsional holatini baholash va uni tinchlantirish		

		Bilimlar:
		Homiladorlikning erta va ishonchli tashxislash belgilari
Homiladorlarni dispanser hisobiga olish bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlar va SSV buyruqlari		
Homiladorlik muddatini oxirgi hayz kuni va obyektiv belgilar asosida hisoblash metodikasi		
Tibbiy hisobga olish hujjatlarini yuritish qoidalari		
Homiladorlikning birinchi uch oyligida ayol organizmidagi fiziologik o'zgarishlar		
Homiladorlik davrida sog'lom turmush tarzi, ratsional ovqatlanish va shaxsiy gigiyena tamoyillari		
Erta muddatlardagi xavfli belgilar		
Tibbiy deontologiya va homilador ayol bilan psixologik muloqot asoslari		
A2.02.5 - Homiladorlarni rejali skrining tekshiruvlariga va laboratoriya tahlillariga o'z vaqtida yuborishni nazorat qilish		Mehnat harakatlari:
	1. Har bir homilador ayol uchun homiladorlik muddatiga mos ravishda individual tibbiy ko'rik va tekshiruvlar reja-grafigini tuzish	
	2. Skrining davrlarida ayollarni prenatal skrining, qon va siydik tahlillari hamda tor mutaxassislar ko'rigiga yo'naltirish	
	3. Laboratoriya va instrumental tekshiruv natijalarini o'z vaqtida olish, tahlil qilish va tibbiy kartaga yopishtirish	
	4. Tekshiruvga o'z vaqtida kelmagan homiladorlarni telefon orqali ogohlantirish yoki uyiga borib chaqirtirish	
	5. Tahlil natijalarida me'yordan og'ish holatlari aniqlanganda darhol shifokorga axborot berish	
	Ko'nikmalar:	
	Homilador ayollar oqimini boshqarish va tibbiy ko'rik vaqtini rejalashtirish	
	Laboratoriya va UTT xulosalarini birlamchi interpretatsiya qilish	
	Tahlil natijalaridagi patologik o'zgarishlarni fiziologik holatdan ajrata olish	
	Bemorlarning elektron va qog'oz monitoringini yuritish	
	Tekshiruvdan bosh tortayotgan yoki beparvo ayollarni tibbiy ko'rik zarurligiga ishontirish	
	Tor soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlashni tashkil qilish	
	Bilimlar:	
	O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan homiladorlarni parvarishlash standartlari va milliy protokollar	
	Prenatal skrining tekshiruvlarining turlari, maqsadlari va o'tkazilishining qat'iy muddatlari	
	Qonning umumiy va biokimyoviy tahlillari, siydik tahlili hamda koagulogrammaning normal ko'rsatkichlari	

		TORCH infeksiyalari va ularning homilaga ta'siri haqida tushunchalar
		Perinatal skrining markazlarining faoliyat tartibi va yo'llanma berish qoidalari
Rezus-konflikt tushunchasi va antitanachalarni aniqlash ahamiyati		
Homiladorlikda yashirin kechuvchi xavfli kasalliklar diagnostikasi		
A2.03.5 - Tug'ruq yoshidagi ayollar o'rtasida istalmagan homiladorlikning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish		Mehnat harakatlari:
		1. Biriktirilgan hududdagi tug'ruq yoshidagi ayollarning to'liq ro'yxatini shakllantirish va yangilab borish
		2. Ayollarning reproduktiv rejalari va kontratseptiv vositalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash
		3. Zamonaviy kontratseptsiya usullari haqida individual va guruhli tushuntirish suhbatlarini o'tkazish
		4. Tibbiy ko'rsatmalarga va ayolning xohishiga asosan mos kontratseptiv vositani tanlashda ko'maklashish
		5. Abortning salbiy oqibatlarini va tug'ruqlar oralig'ini saqlash ahamiyatini targ'ib qilish
		6. Kontratseptiv vosita qo'llayotgan ayollarda nojo'ya ta'sirlarni kuzatish
		Ko'nikmalar:
		Ayolning reproduktiv anamnezi va somatik holatini baholay olish
		Tibbiy yaroqlilik mezonlari jadvalidan foydalanib, xavfsiz vositani tanlash
		Ayolga kontratseptiv vositalarni to'g'ri qo'llashni o'rgatish
		Kontratseptsiya bilan bog'liq noto'g'ri tushunchalarni ilmiy asoslab rad etish
		Nojo'ya ta'sirlar kuzatilganda to'g'ri taktika tanlash va vositani almashtirish
		Aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot materiallari bilan ishlash
		Bilimlar:
		Zamonaviy kontratseptsiya usullarining tasnifi
		Har bir kontratseptsiya turining ta'sir mexanizmi, samaradorligi va afzalliklari
		Kontratseptiv vositalardan foydalanishning tibbiy yaroqlilik mezonlari
		Kontratseptiv vositalarni qo'llashga mutlaq va nisbiy qarshi ko'rsatmalar
		Gormonal vositalarning organizmga ta'siri va ehtimoliy nojo'ya effektlari
	Abortning ayol salomatligiga va keyingi homiladorlikka salbiy ta'siri	
	Reproduktiv anatomiya va fiziologiya, hayz siklining fazalari	

		Shoshilinch kontratsepsiya usullari va ularni qo'llash qoidalari
		Aholi bilan ishlashda maxfiylik va ixtiyoriylik tamoyillari
	A2.04.5 - 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'sishi va rivojlanishini monitoring qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Biriktirilgan hududdagi 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni tasdiqlangan grafik asosida profilaktik ko'rikka chaqirish
		2. Bolaning antropometrik ko'rsatkichlarini standart bo'yicha o'lchash
		3. Olingan o'lchov natijalarini "O'g'il bolalar" yoki "Qiz bolalar" uchun mo'ljallangan maxsus o'sish jadvallariga tushirish
		4. O'sish egri chizig'ini tahlil qilish orqali bolaning jismoniy rivojlanishini baholash
		5. Bolaning yoshiga mos psixomotor rivojlanishini tekshirish
		6. Onalarga ko'krak suti bilan boqish, to'g'ri emizish va 6 oydan so'ng qo'shimcha ovqatlantirish bo'yicha amaliy maslahatlar berish
		7. Bolalarda uchraydigan rivojlanish nuqsonlari va kamqonlik belgilarini erta aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Antropometrik o'lchov asboblaridan to'g'ri foydalanish
		2 yoshgacha bo'lgan bolalarni yotgan holda, kattalarni turgan holda bo'yini o'lchash texnikasi
		O'sish grafiklarini to'g'ri chizish va egri chiziq yo'nalishini interpretatsiya qilish
		Bolaning reflekslari, mushak tonusi va harakat faolligini baholash
		Onaga bolani to'g'ri emizish holatlarini amalda ko'rsatib berish
		Bolaning yoshiga va ehtiyojiga mos kunlik ovqat ratsionini hisoblab berish
		Onadagi xavotir va tushkunlik holatlarini aniqlash hamda psixologik yordam berish
		Rivojlanishda orqada qolish belgilari aniqlanganda pediatrga o'z vaqtida yo'naltirish
		Bilimlar:
		Bolalar o'sishi va rivojlanishi standartlari
		Bolaning yosh davrlari fiziologiyasi va anatomik xususiyatlari
		Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining yoshga oid me'yorlari
		Psixomotor rivojlanish bosqichlari
		Ko'krak suti bilan parvarish qilishning 10 ta tamoyili va laktatsiyani qo'llab-quvvatlash
	Qo'shimcha ovqatlantirish qoidalari	
	Gipotrofiya va semizlikning sabablari hamda oldini olish choralari	

		Bolalarda temir tanqisligi kamqonligi va D vitamini yetishmovchiligi belgilari
		Uy sharoitida bolalar xavfsizligini ta'minlash va baxtsiz hodisalarning oldini olish
	A2.05.5 - Surunkali kasalligi bor ayollarni va nogironligi bor bolalarni davriy ko'rikdan o'tkazish grafigini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Biriktirilgan hududdagi dispanser nazoratida turuvchi ayollar va nogironligi bor bolalarning elektron hamda qog'oz ro'yxatini shakllantirish
		2. Bemorlarni tasdiqlangan grafik asosida oilaviy shifokor va tor mutaxassislar ko'rigiga jalb qilish
		3. Surunkali kasalliklar bo'yicha buyurilgan dori vositalarining muntazam qabul qilinishini nazorat qilish
		4. Nogironligi bor bolalarning individual reabilitatsiya dasturi bajarilishini kuzatib borish va ota-onalarga ko'maklashish
		5. Bemorlarning ahvoli o'zgarganda yoki kasallik xuruj qilganda zudlik bilan shifokorga xabar berish
		6. Amalga oshirilgan ishlar va ko'rik natijalarini "Dispanser kuzatuv kartasi"ga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va bemorlar monitoringini yuritish
		Dispanser nazoratidagi bemorlar bilan qayta aloqa o'rnatish va ularni tibbiy ko'rikka o'z vaqtida kelishga ishontirish
		Uy sharoitida nogironligi bor bolani parvarishlash va oddiy reabilitatsiya mashqlarini ota-onaga o'rgatish
		Bemorning funksional holatini baholash
		Surunkali bemorlarga dori vositalarini to'g'ri qabul qilish bo'yicha yo'riqnoma berish
		Ijtimoiy himoyaga muhtoj bemorlarni aniqlash va tegishli tashkilotlarga xabar berish
		Bilimlar:
		Aholini dispanserizatsiyadan o'tkazish tartibi va dispanser guruhlari tasnifi
		Ayollarda uchraydigan asosiy ekstragenital kasalliklar va ularning kechishi
		Nogironlikni belgilash mezonlari va tibbiy-mehnat ekspertizasi asoslari
		Bolalar nogironligiga olib keluvchi sabablar va parvarish xususiyatlari
		Reabilitatsiya turlari va texnik vositalar haqida tushuncha
	Asosiy dori guruhlari, ularning dozalari va uzoq muddat qabul qilish qoidalari	
	Surunkali kasalliklar profilaktikasi va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari	

	Mas'uliyat mustaqillik: va	<ol style="list-style-type: none"> 1. Homilador ayollarni erta muddatlarda aniqlash va o'z vaqtida dispanser hisobiga olish bo'yicha shaxsiy javobgarlik 2. Skrining tekshiruvlari va laboratoriya tahlillarining tasdiqlangan milliy kalendarga muvofiq to'liq o'tkazilishini nazorat qilish 3. Tavsiya etilgan kontratseptiv vositalarning xavfsizligi va ayol salomatligiga mosligi 4. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'sishi va rivojlanishidagi patologiyalarni mustaqil ravishda erta aniqlash 5. Aholi o'rtasida olib borilayotgan tushuntirish ishlarining sifati va samarasini ta'minlash 6. Dispanser nazoratidagi bemorlarning holati yuzasidan shifokorga o'z vaqtida va haqqoniy axborot berish 7. Tibbiy hisobga olish hujjatlarining ma'lumotlar bazasi bilan bir xilligini ta'minlash 8. Xavf guruhidagi ayollar va bolalar aniqlanganda ularni zudlik bilan tor soha mutaxassisiga yo'naltirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish
A3.5 - Oila a'zolariga uyda tibbiy-ijtimoiy va patronaj yordamini ko'rsatish	A3.01.5 - Tasdiqlangan reja-grafik asosida biriktirilgan aholi xonadonlariga patronaj tashriflarini amalga oshirish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Biriktirilgan hudud aholisi ro'yxati va xavf guruhlari asosida kunlik patronaj rejasini shakllantirish 2. Xonadonlarga tashrif buyurib, oiladagi tibbiy-ijtimoiy muhitni va yashash sharoitlarini o'rganish 3. Bemorlar va xavf guruhidagi shaxslarni vizual ko'rikdan o'tkazish 4. Aniqlangan muammolar bo'yicha joyida tibbiy maslahat berish va zarur hollarda poliklinikaga taklif etish 5. Patronaj natijalarini va o'tkazilgan ko'rik ma'lumotlarini maxsus jurnalga hamda elektron tizimga kiritish <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ish vaqtini samarali taqsimlash va tashrif marshrutini logistik jihatdan to'g'ri rejalashtirish</p> <p>Notanish muhitda bemor va uning oila a'zolari bilan ishonchli muloqot o'rnatish</p> <p>Yashirin kasallik belgilari va oiladagi noqulay ijtimoiy vaziyatni kuzatuvchanlik orqali aniqlash</p> <p>Katta hajmdagi ma'lumotlarni planshet yoki mobil ilova orqali elektron bazaga kiritish</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Universal progressiv patronaj tizimining maqsadi, vazifalari va bosqichlari</p> <p>Aholi xonadonlarida xizmat ko'rsatish bo'yicha xavfsizlik texnikasi va shaxsiy himoya qoidalari</p> <p>Patronaj sumkasi tarkibi, undagi asboblardan va dori vositalaridan foydalanish tartibi</p>

		Tibbiy deontologiya, oila psixologiyasi va konfliktologiya asoslari
		Tibbiy hisobot hujjatlarini yuritish tartibi
		Aholi o'rtasida eng ko'p tarqalgan kasalliklarning birlamchi belgilari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tug'ruqxonadan javob berilgandan so'ng dastlabki 3 kun ichida onani va chaqaloqni uyida ko'rikdan o'tkazish
		2. Chillalik davridagi ayolning umumiy ahvolini, tana haroratini, ko'krak bezlari holatini va bachadon qisqarishini tekshirish
		3. Yangi tug'ilgan chaqaloqning kindik qoldig'ini, terisini, shilliq qavatlarini va emish faolligini baholash
		4. Onaga chaqaloqni ko'krakka to'g'ri qo'yish texnikasi va ko'krak parvarishini amaliy ko'rsatib berish
		5. Kindik parvarishi, chaqaloqni cho'mintirish va gigiyena qoidalari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish
		6. Ko'rik natijalarini chaqaloq rivojlanish tarixi va onaning tibbiy kartasiga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Chillalik davridagi ayolning bachadonini paypaslash va uning holatini aniqlash
		Ko'krak bezlarini tekshirish, sut kelishini baholash
		Tug'ruq yo'llaridagi choklarning bitish jarayonini vizual baholash
		Yangi tug'ilgan chaqaloqni to'liq fizik tekshiruvdan o'tkazish va reflekslarini tekshirish
		Kindik yarasi holatini baholash, qizarish yoki yiringlash belgilarini aniqlash
		Bolani ko'krakka to'g'ri qo'yish va samarali emizishni tashkil qilishda onaga yordam berish
		Chaqaloq terisidagi toshmalar va sarig'lik darajasini aniqlash
		Ota-onalarga chaqaloqni xavfsiz cho'miltirish, kiyintirish va tagligini almashtirishni o'rgatish
		Bilimlar:
		Chillalik davri fiziologiyasi va bachadon involyutsiyasi jarayoni
		Tug'ruqdan keyingi ajralmalar xususiyatlari va me'yorlari
		Laktostaz va mastitning belgilari hamda oldini olish choralari
		Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning fiziologik holatlari va o'tkinchi sarig'lik
		Kindik qoldig'ini parvarishlashning zamonaviy "quruq usuli" va infeksiya belgilari
		Ko'krak suti bilan boqishning tamoyillari, texnikasi va afzalliklari
		Ona va bolada uchraydigan xavf belgilari

		Yangi tug'ilgan chaqaloq terisini parvarish qilish va gigiyena qoidalari
		Postnatal depressiya belgilari
A3.03.5 - Xonadonlardagi sanitariya-gigiyena holatini baholash va sog'lom turmush tarzi bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish		Mehnat harakatlari:
		1. Patronaj davomida xonadonning umumiy sanitariya holatini, tozaligini va xonalar shamollatilishini ko'zdan kechirish
		2. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoitlari va ichimlik suvidan foydalanish madaniyatini o'rganish
		3. Oila a'zolarining shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish darajasini kuzatish
		4. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik bo'yicha targ'ibot suhbatlarini o'tkazish
		5. Yuqumli va parazitar kasalliklarning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish
		Ko'nikmalar:
		Xonadonning sanitariya holatini vizual baholash va kamchiliklarni aniqlash
		Ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini tekshirish
		Aholiga tushunarli tilda sog'lom turmush tarzi bo'yicha ishonchli tavsiyalar berish
		Qo'l yuvish va gigiyenik parvarish texnikasini amalda ko'rsatib berish
		Auditoriya bilan psixologik aloqa o'rnatish va ularni ishontirish
		Sanitariya targ'ibot materiallarini tarqatish va tushuntirish
		Oiladagi mavjud sharoitdan kelib chiqib, gigiyenik holatni yaxshilash bo'yicha individual reja tuzish
		Bilimlar:
		Aholi turar joylariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena normalari va qoidalari
		Sog'lom turmush tarzining asosiy tamoyillari va uning salomatlikka ta'siri
		Yuqumli kasalliklarning yuqish yo'llari va profilaktikasi
		Oziq-ovqat xavfsizligi va to'g'ri ovqatlanish piramidasi
		Shaxsiy va jamoat gigiyenasi qoidalari
		Zararli odatlarning inson organizmiga salbiy ta'siri
	Uy sharoitida ichimlik suvini zararsizlantirish usullari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Shifokor ko'rsatmasiga asosan yotoq rejimdagi bemorlarga uy sharoitida tibbiy muolajalarni bajarish	
	2. Bemorning umumiy holatini, teri qoplamlarini va vital ko'rsatkichlarini tekshirish	
	3. Yotoq yaralarining oldini olish va mavjud jarohatlarga antiseptik ishlov berish	

	A3.04.5 - Uy sharoitida parvarishga muhtoj, yotoq rejimdagi bemorlarga tibbiy muolajalarni bajarish	4. Bemorning yaqin qarindoshlariga parvarish qilish texnikasini o'rgatish
		5. Stomalar va siydik kateterlari mavjud bo'lganda ularni tozalash va almashtirish
		6. Bemorning ahvoli og'irlashganda yoki asoratlar kuzatilganda shifokorga zudlik bilan xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Tibbiy muolajalarni standart asosida xavfsiz bajarish
		Jarohatlarni tozalash va steril bog'lamlarni sifatli qo'yish
		Yotoq yaralariga zamonaviy vositalar yordamida ishlov berish
		Bemorning tana holatini to'g'ri o'zgartirish va funksional karavotlardan foydalanish
		Siydik qopchalarini va stoma qoplarini almashtirish
		Qarindoshlarga parvarish qilish ko'nikmalarini pedagogik yondashuv bilan o'rgatish
		Bemor bilan ruhiy dalda beruvchi muloqot olib borish
		Kritik vaziyatlarda vahimaga tushmasdan tezkor yordam ko'rsatish
		Bilimlar:
		Uy sharoitida dori vositalarini parenteral yuborish qoidalari
		Aseptika va antiseptika talablari hamda tibbiy chiqindilarni zararsizlantirish tartibi
		Yotoq yaralarining paydo bo'lish sabablari, bosqichlari va oldini olish choralari
		Desmurgiya asoslari
		Og'ir yotib qolgan va onkologik bemorlarga palliativ yordam ko'rsatish tamoyillari
		Siydik kateterlari va stomalarni parvarishlash qoidalari
		Parvarishga muhtoj bemorlarda uchraydigan psixologik o'zgarishlar
	Shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish algoritmlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tasdiqlangan reja-grafik asosida xonadonlarga o'z vaqtida tashrif buyurish va qamrovni ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik
		2. Uy sharoitida tibbiy muolajalarni bajarishda aseptika va antiseptika qoidalari qat'iy rioya qilish
		3. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar, homiladorlar va yotoq rejimdagi bemorlarning holatini mustaqil baholash
		4. Patronaj jarayonida aniqlangan tibbiy va ijtimoiy muammolar yuzasidan shifokorga hamda tegishli tashkilotlarga haqqoniy xabar berish
		5. Oila sirlarini saqlash va shaxsiy hayot daxlsizligini hurmat qilish
		6. Aholi xonadonlaridagi sanitariya holati va turmush tarzi bo'yicha xolis xulosa chiqarish

		7. Favqulodda vaziyatlarda tezkor tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish
		8. Tibbiy ma'lumotlarni elektron tizimlarga kiritishda ma'lumotlar aniqligi uchun javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab	Sanitariya-gigiyena normalariga javob beradigan, yorug', shamollatiladigan va isitish tizimiga ega tibbiy xona, yozuv stoli, stullar, pardalangan tibbiy kushetka, hujjatlar va dori vositalari uchun shkaf, chaqaloqlarni ko'rikdan o'tkazish stoli, tonometr, fonendoskop va akusherlik stetoskop, tibbiy termometr, tibbiy tarozi, bo'y o'lchagich, santimetr tasmasi, tazomer, pulsoksimetr, glyukometr, maxsus jihozlangan "Patronaj hamshirasi sumkasi", shoshilinch tibbiy yordam qutisi, bir martalik tibbiy vositalar, sterilizatsiya qutisi va zararsizlantirish vositalari, internet tarmog'iga ulangan kompyuter yoki maxsus planshet.	

Kasbning nomi:	Umumiy amaliyot feldsher-akusheri	
Mashg'ulot nomining kodi:	32220	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mutaxassisdan ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Turli yoshdagi aholi qatlami bilan muloqot o'rnata olish, jamoada ishlash va ziddiyatli vaziyatlarni bosiqlik bilan hal qilish. Keng qamrovli tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida tezkorlik, o'ta kuzatuvchanlik, bemorlarga nisbatan hamdardlik, shaxsiy intizom hamda tibbiy etika va deontologiya qoidalariga so'zsiz rioya qilish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+ norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrinda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Feldsher
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.5 - Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishda shifokorga ko'maklashish	B1.01.5 - Qabulga kelgan bemorlarni saralash, tana harorati va qon bosimini o'lchash, shoshilinch holatlarni ajratib olish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Qabulga kelgan bemorlarning umumiy ahvolini vizual baholash va shikoyatlarini qisqacha so'rash
		2. Bemorlarni ahvolidagi og'irligiga qarab saralash tamoyili asosida guruhlarga ajratish
		3. Barcha bemorlarning tana harorati va arterial qon bosimini o'lchash
		4. Yuqumli kasallikka gumon qilingan bemorlarni darhol alohida xonaga joylashtirish
		5. Shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni navbatsiz shifokor qabuliga kiritish yoki birinchi yordam ko'rsatishni boshlash
		6. O'lchov natijalarini va saralash ma'lumotlarini ro'yxatga olish jurnaliga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Qisqa vaqt ichida bemor ahvolini baholash va to'g'ri qaror qabul qilish
		Diagnostik asboblardan professional foydalanish
		Bemorlar oqimini tartibga solish va navbatlarni boshqarish

		Yuqumli kasallik belgisi bor bemorlarni xavfsiz izolyatsiya qilish
		Vahima holatidagi bemorlarni va ularning qarindoshlarini tinchlantirish
		Bilimlar:
		Birlamchi tibbiy yordam muassasalarida bemorlarni saralash tamoyillari va rangli kodlar tizimi
		Vital ko'rsatkichlarning yoshga oid normalari va patologik o'zgarishlari
		O'ta xavfli va yuqumli kasalliklarning birlamchi klinik belgilari
		Arterial qon bosimi, puls va tana haroratini o'lchash algoritmlari
		Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni talab qiluvchi "xavf belgilari" ro'yxati
		Tibbiy muassasada infeksiya nazorati va xavfsizlik qoidalari
	B1.02.5 - Shifokor ko'rsatmasiga binoan bemorlarga ambulator sharoitda va kunduzgi shifoxonada davolash muolajalarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Shifokor tomonidan belgilangan davo muolajalarini tekshirish va dori vositalarining yaroqliligini aniqlash
		2. Muolaja xonasini va kerakli tibbiy asboblarni aseptika qoidalari muvofiq tayyorlash
		3. Bemorga dori vositalarini turli yo'llar bilan yuborish va tomchi dori ulash
		4. Muolaja vaqtida va undan keyin bemorning umumiy ahvolini kuzatib borish
		5. Ishlatilgan tibbiy vositalarni xavfsiz yig'ish va utilizatsiya qilish
		6. Bajarilgan muolajalarni "Muolaja jurnali"ga va bemorning tibbiy kartasiga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Periferik venalarga kateter qo'yish va parvarishlash
		Mushak orasiga, teri ostiga va vena ichiga inyeksiyalarni og'riqsiz hamda xavfsiz bajarish
		Tomchi dori yuborish tezligini to'g'ri sozlash
		Dori vositalarini shpritsga tortishda sterillikni saqlash
		Allergik reaksiya boshlanganda zudlik bilan muolajani to'xtatib, shoshilinch yordam ko'rsatish
		Tibbiy hujjatlarni aniq va to'g'ri to'ldirish
		Bilimlar:
		Dori vositalarini organizmga yuborish yo'llari va texnikasi
		Aseptika va antiseptika qoidalari
		Asosiy dori guruhlari, ularning dozalari, saqlash shartlari va organizmga ta'siri
		Dori vositalarining nomutanosibligi va yuborish tezligi qoidalari

		Anafilaktik shok va allergik reaksiyalarning belgilari hamda birinchi yordam ko'rsatish algoritmi
		Tibbiy chiqindilarni saralash va zararsizlantirish tartibi
	B1.03.5 - Dispanser nazoratida turuvchi surunkali kasalligi bor bemorlarni reja asosida chaqirtirish va skrining tekshiruvlarini tashkil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Biriktirilgan hududdagi surunkali kasalliklari bor bemorlarning elektron ro'yxatini yangilab borish
		2. Tasdiqlangan reja-grafik asosida dispanser nazoratidagi bemorlarni profilaktik ko'rikka chaqirish
		3. Bemorlar kelganda ularning antropometrik o'lchovlarini, qon bosimini va qondagi qand miqdorini aniqlash
		4. Bemorlarga belgilangan laboratoriya va instrumental tekshiruvlardan o'tish uchun yo'llanmalar berish
		5. Surunkali kasalliklarni nazorat qilish bo'yicha buyurilgan dori vositalarining doimiy qabul qilinishini monitoring qilish
		6. Ko'rik va tekshiruv natijalarini "Dispanser kuzatuv kartasi"ga qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Surunkali bemorlarning kartotekasi va elektron registri bilan ishlash
		Glyukometr va pulsoksimetr kabi ekspress diagnostika uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Bemorlarni dispanser ko'rigiga o'z vaqtida kelishga ishontirish va rag'batlantirish
		Dori vositalarini qabul qilish rejimi buzilgan holatlarni aniqlash
		Bemorga o'z kasalligi bo'yicha kundalik yuritishni o'rgatish
		Tahlil natijalaridagi salbiy o'zgarishlarni birlamchi baholash va shifokorga xabar berish
		Bilimlar:
		Surunkali yuqumli bo'lmagan kasalliklarni profilaktika qilish va dispanserizatsiyadan o'tkazish tartibi
		Eng ko'p tarqalgan surunkali kasalliklarning xavf omillari va asoratlari
